



O'zbekiston Respublikasi maktabgacha
va maktab ta'limi vazirligi

_____ holatida
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi
_____ maktabgacha va
maktab ta'limi bo'limi qarufidagi
____-maktabgacha ta'lim tashkiloti
tayyorlov guruhi tarbiyachisi

_____ ning
takomillashtirilgan "Ilk qadam"

o'quv turi asosida
"O'ynab o'rganamiz"

maqsadida tashkillangan

FAOLIYAT

ISHLANMASI

(Avgust oyining 3-haftasi)



veb-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com veb-sayti orqali o'zingiz uchun kerakli ma'lumotlarni yuklab oling.

+99890-530-88-18 nomerga telegramdan yozishingiz yoki jek456 izlab telegramga yozishingiz so'raladi.

Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi.

Hujjat word variant dos. formatda beriladi.

Tayyorlov guruhlarga avgust oyi 3-hafta "O'ynab o'rganamiz" mavzusida markazlar bo'yicha tayyorlangan faoliyat ishlanmani to'liq holda olish uchun telegramdan yozing.




Narxi: 5 ming so'm

Telegram kanalimiz:

@maktabgacha_tt

To'lov uchun: HUMO 9860230104973329

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Bu hujjatni hech kimga tarqatmaslik sharti bilan olishingiz mumkin.

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.

To'liq holda olganingizdan so'ng:

Faqat o'zingiz uchun foydalaning.

Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.

Internet veb-saytlarga joylamang.

Telegram orqali kanal va gruppalarga tarqatmang.

OMONATGA HIYONAT

QILMANG

Guruh: Tayyorlov guruhlar uchun

Oy mavzusi: QUVNOQ VA SOG'LOM BOLALAR

Hafta mavzusi: O'ynab o'rganamiz

Maqsad: bolalar turli hil o'yinlarni o'rganadilar.

Kerakli jihozlar: mavzuga oid rasli kitoblar, rasmlar, AKT **Faoliyatning borishi:**

1. Rasmlar va kitoblarni ko'rib chiqish.

Mavzuga mos videorolikni tomosha qilish

Rasmlar asosida o'zaro suhbat

Mavzu yuzasidan sodda gaplar bilan hikoya tuzish

Muhokama, xulosa

Bolalarga yurish va yugurishni o'rgatishda davom etish. Ular bilan buyumlar oralab yurish va yugurishni takrorlash; Oyoq uchida yugurishga o'rgatish (erdan) ikki oyoqlab keskin itarilish va sakrayotib qo'lni ko'tarib yurishda buyumga tekkizish; To'pni ikki qo'llab yuqoriga irg'itishni mashqlar; 1,5 daqiqagacha yugurish va sekin yurib, nafas mashqlariga o'tish.

Faoliyat uchun zarur anjomlar: Bolalar soniga mos (diya) to'plar, xodacha, chizimcha, bir nechta lenta.

Faoliyatga tayyorgarlik: Tarbiyachi bolalarga safni tushuntiradi, so'ngra bolalarga o'z ishorasiga ko'ra bir-birlarining ketidan zal bo'lib tizilish va boshlovchining ketidan zal bo'yab yurishni tushuntiradi. Bolalarga yurish va yugurish chog'ida buyumlar orsidan ephilik bilan o'tatlanish, buyumlarga tegib ketmaslik zarurligini tushuntiradi.



Faoliyatning **1-qismida** bolalar tarbiyachi tushuntirgandek bir qator bo'lib, boshlovchining ketidan zal bo'yab tizilishib yuradilar. Oyoq uchida yurish, so'ngra qo'llar belda xolda yurish va yugurish mashqlari bajariladi. Ushbu mashqlar bajarilgach, bolalarga bir qator qilib qo'yilgan buyumlar orasidan (40 sm oraliqda) yurish, yugurish komandasi beriladi. Bolalar oyoq uchida yurganlarida tarbiyachi ular diqqatini oyoqlarning to'g'ri qo'yilishiga, qadamlarning qisqa bo'lishi, gavnani tik tutish, to'g'ri yurish va elkalarning rasoligiga qaratadi. Tovonlarning polga tegmasligi, qo'llar belga qulay qo'yilishi zarurligini eslatib boradi.



Yurish va yugurish mashqlari navbatma-navbat bajariladi. Yugurish soniyadan ko'p bo'lmasligi zarur. Ushbu mashqlar bajarilgach tarbiyachi o'qituvchining ishorasiga ko'ra bolalar uch qator bo'lib saf tortadilar.

Faoliyatning **2-qismida** tarbiyachi bolalarga to'p bilan bajariladigan umumrivojlantiruvchi mashqlarni bajarishni taklif etadi.

1-mashq. Dastlabki holatda oyoqlar elka kengligida qo'yilib, to'p o'ng qo'lda tutiladi. Dastlab qo'llar yon tomonga uzatiladi, so'ng chap tomonga ko'tarilib, to'p chap qo'lga o'tkaziladi. Qo'llar yon tomonga qaytarilib dastlabki holatga qaytiladi. Ushbu mashq 6-8 marta takrorlangach keyingi mashqqa o'tiladi.

2-mashq. Dastlabki holatda oyoqlar elka kengligida qo'yilib, to'p o'ng qo'lda tutiladi. 1-2 deyilganda o'ngga burilib, to'p buriladi va ikki qo'llab ilib olinadi. 3-4 deyilganda dastlabki holatga qaytiladi. Ushbu mashq chapga burilib ham bir necha marta takrorlanadi. Ushbu mashq ham 6-8 marta takrorlangach keyingi mashqqa o'tiladi.

3-mashq. Dastlabki holatda oyoqlar elka kengligida qo'yilib, to'p o'ng qo'lda tutiladi. 1-2 deyilganda bolalar o'ng tomonga burilish, to'pni chap oyoq tagidan o'tkazib, chap qo'lga olish buyruq berilganda 3-4 deganda rostlanib, to'p chap qo'lga o'tkaziladi. Ushbu mashq ham 6-8 marta takrorlangach keyingi mashqqa o'tiladi.

4-mashq. Dastlabki holatda oyoqlar o'ng oyoq yuzi kengligida qo'yilib, to'p o'ng qo'lda tutiladi. 1-2 deyilganda to'pni yarim bukkan holda to'pni polga urib so'ng qo'lga olinadi. 3-4 deganda dastlabki holatga qaytiladi. Ushbu mashq ham 6-8 marta takrorlanadi.

5-mashq. Dastlabki holatda tizzalar polga tekkizilib, Ushbu mashq chap tomonga ham egilib 6-8 marta bajariladi.

6-mashq. Dastlabki holatda tik turiladi, qo'llar belda, to'p erda. To'pning atrofida avval o'ng tomonga, so'ngra chap tomonga ikki oyoqda sakrash mashqi bajariladi. Sakrashni navbatma-navbat turgan joyda yurish bilan (3-4 marta) almashtirib bajariladi.

Asosiy harakat turlaridan quyidagi mashqlar bajariladi:

Sakrash - ikki oyoqda sakrash, (“Buyumga qo‘lingni tekkiz”) harakatli o‘yin. Sakrash ketma-ket 4-6 marta bajarilgach, bir zum nafas rostanadi, so‘ngra tarbiyachining ishorasiga ko‘ra sakrash davom ettiriladi. Har bir guruh bilan mashq 3-4 marta takrorlanadi.



Irg‘itish – diametri 6-8 sm bo‘lgan kichik to‘plarni ikki qo‘llab o‘yunga irg‘itish. Tarbiyachi bolalar irg‘itishni bajarayotganida ular e‘tibor bilan davlatdagi xolatda oyoqlarning elka kengligida qo‘yilishiga, to‘pni qo‘llarni oldida ushlab, irg‘itilgan to‘pning uchishini kuzatish va ilib olish jarayonida to‘pni ko‘krakka bosishga intilmaslikka qaratadi. Mashqlar 12-15 marta bajariladi.

Yugurish – o‘rta tezlikda 1,5 daqiqadan yugurish tarbiyachi bolalarga ikki qator bo‘lib saf tortish vazifasini beradi. Birinchi guruh bolalari qo‘lda to‘p bilan turadilar. Bolalar bir joyda erkin xolda to‘p bilan mashqni bajarish shartlari tushuntirilgach, tarbiyachi bilan birgalikda yuguradilar. Tarbiyachi ikkinchi guruh bolalari uchun ikkita ustuncha qo‘yadi va to‘pni ustuncha orasiga chizimcha yoki lenta tortadi. Chizimchaga yoki lentaga turli buyumlar (qo‘lga toqcha, sharcha yoki boshqa yorqin rangdagi o‘yinchoqlar) osish mumkin. Tarbiyachining ishorasiga ko‘ra bolalar ikki oyoqda sakrashlari va osilgan to‘pni qo‘llab o‘yunga tekkizishlari kerak. Asosiy e‘tibor bolalarning poldan keskin o‘tarilish va qo‘lini buyumga tekkizishga mos harakatlanishga qaratilishi bo‘ladi. Birinchi guruh bolalari muayyan miqdorda sakrab bo‘lgach, tarbiyachi ikkinchi guruh bolalariga shu vazifani beradi. Barcha bolalar ushbu mashqlarni bajarish uchun 1,5 daqiqalik

o‘rtacha yugurish mashqlari bajariladi. Mashqlar sekin-asta yurish, nafas olish mashqlari va o‘yin bilan tugallanadi.

Harakatli o‘yin: Tarbiyachi bolalarga faoliyat yakunida “Pingvinlar” harakatli o‘yinini o‘ynashni taklif etadi. O‘yin qatnashchilari doira bo‘lib turadilar. Har bir bolaning qo‘lida bittadan xaltacha bo‘lib, tarbiyachining ishorasiga ko‘ra bolalar qo‘llaridagi xaltachalarini tizzalari orasiga qisib oladilar va doira bo‘ylab ikki oyoqlab sakraydilar. Sakrash chog‘ida bolalar bir-birlariga halaqit bermasliklari

uchun o'rtalaridagi masofa 0,5 dan 1 metrgacha bo'lishi zarur. Sakrash oldin avval bir tomonga qarab bajariladi, so'ng to'xtab, boshqa tomonga yo'naltiriladi.

Til, nutq va savodxonlikka o'rgatish

Mavzu: Barmoqlar teatri

Maqsad: bolalar barmoq harakatlari orqali nutqni rivojlantiradilar.

Kerakli jihozlar: AKT, barmoqlar uchun to'qilgan-tikilgan ertaklar qahramonlari qo'g'irchoqlari.

Faoliyatning borishi:

1. AKT orqali teatrlarning namoyishi.

Ertak qahramonlari va syujetini yodga olish.

Ertak qahramonlarini tanlash va rollarni taqsimlash.

O'yin jarayoni.

Bolalar ishtirokini muhokama qilish va rag'batlantirish.

Qo'shimcha: O'zbek milliy akademik teatr aktyorlari haqida ma'lumot berish.

Alohida e'tibor qaratiladi: rollarni bajarish jarayonida nutqning ravonligi.



Fan va tabiat

Mavzu: Suvosti kemasi

Maqsad: bolalar sho'r suvning zichligi toza suvning zichligidan og'ir ekanligini bilib oladilar.

Kerakli jihozlar: 2 dona shisha stakan, toza suv, xom tuxum, tuz, qoshiq.

Faoliyatning borishi:

1-stakanga tuxum va uning ustidan suv quyiladi.

Bu jarayonda bolalar tuxumning suvga cho'kishini kuzatadilar.

2-stakanga 3 osh qoshiq tuz aralashtiriladi va unga tuxum solinadi.

Bu jarayonda bolalar tuxumning suv yuziga suzib yurishini kuzatadilar.

Xulosa: Sho'r suvning zichligi toza suvning zichligidan ancha og'ir.

Shuning uchun sho'r suvga predmetlar cho'kmaydi.

Qo'shimcha: dengiz suvida suzish toza suvga suzishdan osonligini aytish.

Alohida e'tibor qaratiladi: amalga oshirilayotgan har bir jarayonni bolalar tomonidan izohlanishi.



San'at

Mavzu: Bizning o'yin maydonchamiz

Maqsad: bolalar o'yin maydonchasini rasm chizish orqali tasvirlashni biladilar.

Kerakli jihozlar: o'yin maydonchasi tasvirlangan rasmlar, rangli bo'yoqlar, oq qog'oz, mo'yqalam.

Faoliyatning borishi:

Mavzu yuzasidagi rasmlarni tomonlari bilan ko'rib chiqish.

Rasm mavzusi bo'yicha suhbat.

Ish jarayoni.

Bolalar ishlari natijalarini muhokama qilish va rag'batlantirish.

Bolalar ishlari ko'rgazmasi.

Qo'shimcha: bolalar xohishiga ko'ra o'yin maydonchani qo'shimcha tarzda bezashni taklif etish mumkin.

Alohida e'tibor qaratiladi: bolalar o'z guruhida ishlay olish qobiliyati, ularning ijodiy tafakkurini rivojlantirish va hamjamiyatdagi hamkorlik munosabatlari jarayoni.

Qurish va konstruksiyalar. Matematika markazi

Mavzu: Uyinlar shaharchasi

Maqsad: bolalar kublar va turli konstruktorlardan o'rinli foydalanishni biladilar.

Kerakli jihozlar: kublar, geometrik shakl, manzarali o'simliklar to'plami, o'yinlar shaharchasi tasviri tushirilgan suratlar.

Faoliyatning borishi:

"Uyinlar shaharchasi" mavzusi bo'yicha suratlarni ko'rib chiqish.

Uyinlar shaharchasining qurilishini rejalashtirish.

"Uyinlar shaharchasi" ni konstruksiyalash.

Bolalar ishlarini muhokama qilish va rag'batlantirish.

Qo'shimcha: tarbiyachi bolalarga o'z kompozitsiyalarini mayda o'yinchoqlar (archalar, gullar, haykalchalar va shu kabilar) bilan bezashni taklif etish.

Alohida e'tibor qaratiladi: quruvchi kasbiga qiziqish va hurmatning ortishi.

Syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish

Mavzu: Modalar atelesi (qo'g'irchoq uchun

ko'ylak)

Maqsad: bolalar o'yin orqali modeler va tikuvchi kasbini tasvirlab beradilar.

Kerakli jihozlar: turli gulli va sidirg'a ipli matolardan namunalar, tasmalar, qo'g'irchoq kiyimlari andozalari, chiroyli ko'ylaklar kiygan qo'g'irchoqlar.

Faoliyatning borishi:

“Qo'g'irchoqni kiyintiramiz” o'yin (tayyor kiyimlar).

Uz ishlari uchun mato va qo'g'irchoq tanlash.

Uz qo'g'irchoq'i uchun libos yaratish.

“Yasangan qo'g'irchoqlar” namoyishi.

Qo'shimcha: ko'ylaklar uchun aksessuarlar taklif etish.

Alohida e'tibor qaratiladi: qo'l mayda motorikalarining rivojlanishi xavfsizligi asoslari.

